


Qoraqalpog'iston Respublikasi

Statistika boshqarmasi



2024-YIL YANVAR-SENTABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR






2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 14307,2 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 82,1 % i yoki 11739,2 mlrd so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 17,9 % yoki 2568,0 mlrd so‘m moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023-yildagi ulushiga nisbatan 11,1 % punktga kamayib, 12,1 % ni yoki 1729,9 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 12577,3 mlrd so‘m yoki jami investitsiyalarning 87,9 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2023-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 11,1 % punktga ko‘paydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so'm




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 7803,6 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 54,6 % ini tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1763,2 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 2,3 martaga oshib, 12,3 % i o'zlashtirildi. Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,2 % i yoki 1459,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


	Investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	ulushi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	14307,2	156,4	100,0
tumanlar:			
Amudaryo	447,5	132,7	3,1
Beruniy	355,2	121,0	2,5
Bo‘zatov	45,5	56,4	0,3
Qorao‘zak	5232,9	292,5	36,6
Kegeyli	84,5	83,5	0,6
Qo‘ng‘irot	2486,8	211,8	17,4
Qonliko‘l	154,5	116,8	1,1
Mo‘ynoq	1335,0	149,3	9,3
Nukus	272,4	90,3	1,9
Taxiatosh	114,3	148,2	0,8
Taxtakopir	63,9	113,9	0,4
To‘rtko‘l	505,9	88,6	3,5
Xo‘jayli	231,0	99,4	1,6
Chimboy	271,8	114,5	1,9
Shumanay	97,8	100,5	0,7
Ellikqal‘a	356,5	73,5	2,5
Nukus sh.	2251,7	99,2	15,7

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2023-yilga nisbatan 2,9 martaga oshdi. Bunday yuqori o‘shishni 2022-2027-yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o‘zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) bo‘yicha dastur, 2020-2030-yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini ko‘paytirish va boshqa investitsiya loyihalari bilan izohlash mumkin.


Qurilish-montaj ishlari



Mashina, uskuna, inventar




Boshqa xarajatlar



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariga 7175,7 mlrd so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 50,2 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventarlar bo'yicha 6301,4 mlrd so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 44,0 %) va boshqa xarajatlarga 830,1 mlrd so'm (5,8 %) o'zlashtirildi.



Yangi qurilish



Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya



Boshqa yo'nalishlar

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Shumanay tumanida kuzatildi – 72,5 % yoki 70,9 mlrd so'm.


Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qorao'zak tumanida kuzatilib, 37,6 % ni yoki 1967,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Qorao'zak tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 59,5 % yoki 3116,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 9242,5 mlrd so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 64,6 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2022-2027-yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Qorao'zak tumanida kuzatilib, u 98,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3572,8 mlrd so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25,0 % ini tashkil etdi. Qolgan 10,4 %, ya'ni 1491,9 mlrd so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hudular bo'yicha yangi qurilish ishlariga ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 6619,7 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 46,3 % i o'zlashtirilgan.

Tog'-kon sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


**TOG'-KON SANOATI
BILAN BOG'LIQ BOSHQA
FAOLIYAT**
18,1 mlrd so'm
ulushi 0,2 %

**METALL RUDALARINI
QAZIB OLISH**
4494,3 mlrd so'm
ulushi 31,4 %

**XOM NEFT VA TABIIY GAZ
QAZIB OLISH**
2107,3 mlrd so'm
ulushi 14,7 %

Ishlab chiqarish sanoatida jami 1691,2 mlrd so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 11,8 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 5,7 % i yoki 816,7 mlrd so'mi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sohasiga tegishlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd so‘m

	Jami	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10428,8	1763,2	862,0	7803,6
tumanlar:				
Amudaryo	269,6	-	124,1	145,5
Beruniy	175,6	-	73,5	102,1
Bo‘zatov	7,9	-	-	7,9
Qorao‘zak	5171,2	767,8	31,1	4372,3
Kegeyli	25,4	18,1	-	7,3
Qo‘ng‘irot	2098,7	761,9	455,8	881,0
Qonliko‘l	56,9	9,3	-	47,6
Mo‘ynoq	1139,0	-	-	1139,0
Nukus	108,2	2,5	55,3	50,4
Taxiatosh	40,9	-	10,4	30,5
Taxtako‘pir	27,5	6,1	-	21,4
To‘rtko‘l	121,2	66,5	20,3	34,4
Xo‘jayli	29,5	8,2	0,6	20,7
Chimboy	99,1	7,2	-	91,9
Shumanay	19,8	8,8	-	11,0
Ellikqala	131,3	-	9,8	121,5
Nukus sh.	907,0	106,8	81,1	719,1

2024-yil yanvar-sentabr oylarida 10428,8 mlrd so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 72,9 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 6813,6 mlrd so‘mni tashkil etdi va qolgan 3615,2 mlrd so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 9566,8 mlrd so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 862,0 mlrd so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati 2,2 martaga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi

